

**MIRSODIQ TOJIYEVNING “BAYRAM UVETYURASI”  
ASARINI DIRIJJORLIK QILISH MASALALARI**

*Karabayev Abdumajid Nagimovich  
O‘zbekiston davlat konservatoriysi  
"Orkestr dirijyorligi" kafedrasi katta o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada atoqli o‘zbek kompozitor Mirsodiq Tojiyevning “Bayram uvertyurasi” asar tahlil etiladi, uni to‘g‘ri talqin qilish masalalari hamda orkestr bilan ishlash jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ularning yechimlari ko‘rsatiladi.

**Kalit so‘zlar:** dirijyor, orkestr, kompozitor, musiqiy shakl, musiqa cholg‘ulari, tembr, uslub, dinamika.

O‘zining yaratgan asarlari bilan o‘zbek simfonizmi rivojiga ulkan hissa qo‘shtigan kompozitor – bu shubhasiz, Mirsodiq Tojiyevdir. Kompozitor o‘zbek milliy simfonizmining eng yorqin namoyondasi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. O‘zining ko‘plab asarlarida o‘zbek xalqi tarhidagi obrazlar va fojeaviy xodisalarini aks ettiradi. Milliy ohanglarni simfonik musiqada jarang sochdirish uchun ko‘p izlanishlar olib borgan. Shuning uchun ham uning asarlarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mirsodiq Tojiyevning ijodiy merosida “Bayram uvertyurasi” alohida o‘rin tutadi. 1985-yilda premerasi bo‘lib o‘tgan ushbu asar hozirgi kunga qadar orkestrlar repertuaridan tushmay kelmoqda. Asarning tantanavorligi, milliy obrazlarning yorqin ifodalanganligi, orkestr cholg‘ularidan mahorat ila foydanilganligi asar muvaffaqiyatining sababchisidir.

Uvertyura qisqartirilgan sonata allegroshi shaklida yozilgan<sup>1</sup> bo‘lib, unda kirish qism va koda ham mavjud. Kirish qism 4/4 o‘lchovida bo‘lib, asar sur’ati tez bo‘lganligi uchun, uni *alla breve* tarzida, ya’ni 2 ga dirijyorlik qilish kerak. 3-taktdan zarbli cholg‘ular bilan birga ijroni boshlayotgan alt, violonchel, kontrabaslar partiyasi o‘tkir va qisqa-qisqa shtrixda chalinishi kerak:

Asarga milliy ruh berish uchun kompozitor nog‘ora cholg‘usini partituraga

<sup>1</sup> Yunusov R. Mirsodiq Tojiyev. Monografiya. T.: Musiqa. 2018. 2016-bet.

kiritadi. Shu bilan birga, o‘zbek bayram marosimlarini karnay cholg‘usisiz tasavvur etib bo‘lmajanligi sabab, misli damli cholg‘ular asarning boshidanoq, barchani bayramga chorlab, karnay imitatsiyasini ijro etishadi. Valtorna va trombonlarning galma-galdan ijro etishi bir necha karnaylarning effektini beradi:

A musical score for brass instruments. It includes four staves: Hn.1 - Hn.2 (High Horns), Hn.3 - Hn.4 (Low Horns), Tbn.1 - Tbn.2 (Trombones), and Tbn.3. The music consists of two measures. In the first measure, Hn.1 and Hn.2 play eighth-note patterns, while Hn.3 and Hn.4 provide harmonic support. Tbn.1 and Tbn.2 play sustained notes. In the second measure, the patterns continue with dynamic markings like ff (fortissimo). The score is written on five-line staves with clefs and key signatures.

Ushbu motivni ijro etishda dirijyor misli-damli cholg‘ular ijro eta oladigan darajagi quyuq auf berib, ularning asar sur’atini cho‘zib qo‘ymasliklariga e’tibor qaratishi kerak. 4 taktdan so‘ng yangi mavzu yog‘ochli-damli cholg‘ular va trubalar tomonidan ijro etiladi:

A musical score for woodwind instruments. It includes four staves: Ob.1 - Ob.2 (Oboes), C. A. (Clarinet in A), Cl.1 - Cl.2 (Clarinet in C), and B. Cl. (Bass Clarinet). The music consists of three measures. The instruments play eighth-note patterns with dynamic markings like ff. The score is written on five-line staves with clefs and key signatures.

Bu mavzuni ijro etishda sozandalar har bir nota uchun alohida chuoqur nafas olib, og‘irroq urg‘u berishlari kerak. Yana bir ahamiyatli jihat – bu mavzuning 3-taktidagi trioldir. Sozandalar ko‘pincha har bir triolga urg‘u beraman deb, o‘lchovdan chiqib ketishlari kuzatiladi. Buni oldini olish uchun, triolga yarimtalik notalarga berilgan kabi og‘ir aksent emas, balki yengilroq urg‘u bilan ijro etishlari lozim.

Shu bilan birga, aynan shu vaqtida dirijyor "karnay" partiyasini ijro etayotgan valtorna va trombonlarning ijro dinamikasini ozgina pasaytirishi kerak. Chunki, agar "karnay"lar baland dinamikada qolib ketadigan bo‘lsa, asosiy mavzu eshitilmay qolishi ehtimoli mavjud. Kirish qism yakunlangach, 3/4 o‘lchovidagi asosiy mavzuga o‘tiladi:

A musical score for a single instrument, likely a woodwind. It shows a melodic line with slurs and dynamic markings. The first measure starts with a forte dynamic (f) and a melodic line consisting of eighth-note pairs. The second measure continues with a similar pattern. The score is written on five-line staves with clefs and key signatures.

Mavzuning ijrosida stakkatolarning aniq ijro etilishiga va passajlarning ravon, hech bir notasi tushib qolmasligiga ahamiyat berish zarur. Dirijyorlik qilishda esa tekis 3/4 o‘lchovini ushslash kerak.

Aynan shu vaqtida jo‘rnavoz vazifasini o‘tayotgan fagot, valtorna, 2-skripkalar va violonchellar ijro etayotgan sakkiztalik notalar bo‘shashib qolmasligi darkor.

Asosiy mavzuning 4-taktida trombonlarda kelayotgan kuyidagi motivga aniq auf berib, *glissandi* bo'rttirib ko'rsatib berish kerak:



O'ng qo'l bosh mavzu bilan band bo'lganligi uchun, ushbu motivni dirijyorlik qilish uchun chap qo'lni biroz oldinga chiqarib, 2-hissaning yarmiga auf berib, 3-hissada qo'lning o'zida *glissando*simon harakat qilish kerak. Bu harakat sozandaning o'z vaqtida va ifodali ijro etishi uchun zarurdir.

8-raqamda kelgan *tutti* vaqtida trubalarda ritmik surat berilgan:

Ushbu ritmik motiv butun orkestr ichidan ajralib turishi va dirijyor trubachilarga alohida auf berishi darkor. Shu bilan birga sozandalar odatiy "pa-pa-pa" tarzida puflash bilan emas, balki "ta-ta-ta" puflashi orqali ijro etishlari kerak.

Ikki taktlik umumiy akkordlardan keyin torli cholg'ular guruhi (kontrabasdan tashqari) partiyasida keladigan yangi bog'lovchi motiv ijrosida sozandalar o'rtasida umumiy ansambl hosil qilib, bir kishi chalayotgandek holatni yuzaga keltirish kerak:



Buning uchun dirijyor har bir takt boshida aniq auf berishi kerak.

Asarning birinchi qismida asosiy mavzu bir necha cholg'ular guruvida ijro etiladi. Ularning barchasida yuqorida aytib o'tilgan jihatlarga ahamiyat berish zarur (stakkatolar aniqligi, passajlar ravonligi, umumiy ansambl).

Yondosh mavzu 2/4 o'lchovida yozilgan bo'lib, 1-qismga kontrast sifatida lirik xarakterda keladi. 2 takt usuldan so'ng asosiy mavzu ingliz burg'usi va alt sozlarida ijro etiladi.

Ushbu mavzuning ijro etishda dirijyor qo'llari mayin harakatlanishi va *legato* shtirixini o'zida aks ettirishi kerak. Mavzuni kam sonli sozandalar chalayotganligi uchun jo'rnavozlik qilayotgan truba, litavra, 1-2-skripka va violonchellar ijrosini iloji boricha *pianissimo* dinamikasiga tushirish kerak.

Kompozitor bu yerda o'zbekona usuni aks ettirish uchun, zamonaviy kompozitorlik xos bo'lgan element – torli cholg'ularda dekaga urish uslubidan foydalanadi:



Kamon bilan skripka qobig‘iga urib ijro etiladigan bu usulni chalishda shovqinli tovushning ko‘payib ketmasligini dirijyor boshqarishi kerak.

Reprizaga qaytishda fagot, kontrafagot, alt, violonchel va kontrabas cholg‘ularida ijro etiladigan mavzuda ko‘pincha tempdan chiqish hollari kuzatiladi (bu ba’zida tezlashtirish, yoki aksincha, ortga tortish). Buning oldini olish uchun 8 talik notalar yozilgan stakkato shtrixida uzib, 16 talik notalarni esa biroz yengilroq, ya’ni detashe va stakkato o‘rtasidagi uncha qo‘pol bo‘lmagan shtrixda chalinishi kerak. Shundagina sozandalar o‘rtasidagi birlikka erishish mumkin.

Repriza qismi tugagach, kompozitor kirish qismining ham qisqartirilgan qaytarilishini beradi. Bu yerda bo‘lim boshida aytib o‘tilgandek 2 ga dirijyorlik qilib, triollar ijrosida sur’atning o‘tirish qolmasligiga ahamiyat berish kerak.

Koda qismiga kelganda yog‘ochli-damli cholg‘ular va torli cholg‘ular unison ijrosidagi yondosh partiyaga ustiga o‘rta qismda lirik xarakterda berilgan mavzu, bu safar tantanavor, zalvorli xarakterda beriladi.

41-raqamdan asosiy mavzuning qismlari kanon sifatida orkestr ijrosidan o‘tadi. Bunda dirijyor har bir cholg‘uning o‘z vaqtida tushishi uchun aniq auf berib, umumiy holatni nazorat qilishi kerak.

45-raqamga kelib, butun orkestr ff dinamikasida ijro etadi. Dirijyor bu vaqtida misli-damli cholg‘ular guruhida kelayotgan mavzuga dirijyorlik qilishi va uni ajratib ko‘rsatishi darkor. Asar fff dinamikasida orkestr *tuttisi* bilan yakunlanadi.

Ushbu tahlildan xulosa qilamizki, kompozitor simfonik orkestr sozlari imkoniyatidan keng foydalanib, o‘ta chiroqli bezaklar orqali o‘zbekona bayram manzarasini nozik did bilan tasvirlagan.

M.Tojievning "Bayram uvertyurasi" O‘zbekiston kompozitorlari ijod maxsullari orasida bugungi kunda eng ko‘p ijro etiladigan asarlardan biridir. Muallifning milliy musiqa sir-asrorlaridan boxabarligi, orkestr imkoniyatlaridan ustamonlik bilan foydalanganligi, bayram manzarasini go‘zal tarzda ochib bergenligi asar muvaffaqiyatiga sabab bo‘lgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
2. Yanov-Yanovskaya N.S. Uzbekskaya simfonicheskaya muzika. Toshkent: G'afur G'ulom. 1979.
3. Jabborov A.X. O'zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari. – Toshkent: Yangi asr avlod. 2004.
4. Neymer V.B. Psixologiya dirijirovaniya. Musiqa. T., 2010.
5. Xaqnazarov Z. O dirijirovanii. T. 2012.
6. Yunusov R. Mirsodiq Tojiyev. Toshkent 2018.